TA’LIM JARAYONIDA ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJI BO”LGAN BOLALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH USULLARI

Safarova Sanobar Omontashevna

Nizomiy nomidagi TDPUning “Surdopedagogika va Maxsus pedagogikaning klinik asoslari”kafedrasi, dosenit.

Annotatsiya. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan insonlarni bolalik davridanoq har jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularga ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, umuman olganda, jamiyat hayotiga faol integratsiyalashuvi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratilishi va ularni oilaviy hayotga tayorlash usullari to’g’risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar. Imkoniyati cheklanganlik, ijtimoiy moslashuv, integratsiya, oila, psixolo- fiziologik rivojlanish, korreksion muhit, ijtimoiy muhit, inklyuziv ta’lim

Аннотация. В статье представлена информация о способах поддержки людей с ограниченными возможностями во всех аспектах с детства, создания необходимых условий для их образования, трудовой деятельности и общей активной интеграции в общество, а также подготовки их к семейной жизни..

Ключевые слова. Инвалидность, социальная адаптация, интеграция, семья, психофизиологическое развитие, коррекционная среда, социальная среда, инклюзивное образование

Annotation. The article presents information on ways to support people with disabilities in all aspects from childhood, creating the necessary conditions for their education, work and general active integration into society, as well as preparing them for family life.

Keywords: Disability, social adaptation, integration, family, psychophysiological development, correctional environment, social environment, inclusive education

Kirish

Imkoniyati cheklangan insonlar muammosi kishilik jamiyatning azaliy muammolaridan biri bo‘lib, bugungi kunda dunyoda 650 milliondan ortiq shunday insonlar istiqomat qilmoqda. Ular yer yuzi aholisining salkam 10% ni tashkil etib, ulardan 80% dan ortig‘i rivojlanayotgan davlatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Imkoniyati cheklangan ayollar soni erkaklarga qaraganda ko‘proqni tashkil etadi.

Imkoniyati cheklangan insonlarni bolalik davridanoq har jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularga ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, umuman olganda, jamiyat hayotiga faol integratsiyalashuvi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Jumladan, “shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy hayotida va mehnat faoliyatida xulq-atvorning eng maqbul modelini shakllantirish orqali shaxsni tarbiyalash” va “o‘quvchilarning

ISSN 3030-3907

ijtimoiy-hissiy rivojlanishlari, hayotiy qobiliyatlarining shakllanishi uchun zarur korreksion (tuzatuvchi) — rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish” yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgn inklyuziv ta’lim joriy qilingan ta’lim muassasalarining asosiy vazifalarini tashkil etadi.

Mamlakatimizda 2020 – 2025 yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, “ta’lim barcha uchun” tamoyili asosida 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab respublika bo‘yicha tajriba-sinov tariqasida 31 ta umumta’lim maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etilib, ularda 122 nafar alohida ta’lim ehtiyojiga muhtoj bolalar ta’limga jalb etilgan bo‘lsa, 2024/2025 o‘quv yilida inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablar soni 950 tani, ularda ta’lim olayotgan nogironligi bo‘lgan bolalar soni 1 845 nafarni (shundan, 2024-yil davomida 421 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida 651 nafar bolalar) tashkil qilmoqda.

Bugunga kelib, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya va maxsus pedagogikada “imkoniyati cheklanganlik” tushunchasi shartli ravishda ikki jihatdan, ya’ni tibbiy va ijtimoiy nuqtai nazarlardan talqin qilinmoqda. Tibbiyotda imkoniyati cheklanganlik insonda tashxis orqali organik patologiya va disfunksiyani belgilash, pirovardida kasal maqomini berish, ularni tuzatish va ba’zida ajratib qo‘yish zarurligi bilan bog‘lanadi. Ijtimoiy yondashuvda esa ushbu tushuncha mohiyati bevosita insonning jamiyatga integratsiyalashuvi va moslashuvi bilan bog‘liq holda tushunilmoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, “Ijtimoiy moslashuv – bir vaqtning o‘zida uchta darajada: jamiyatda, oilada va shaxsiy-individual darajada yuz beradigan murakkab hodisadir... Insonlarning zamonaviy voqelikka moslashuvi uning shaxsiy ijtimoiy-demografik xususiyatlari (salomatlik holati, oilaviy ahvoli, ijtimoiy talab) bilan bir qatorda ijtimoiy institutlar: davlat, oila, ijtimoiy xizmatlar va jamoat tashkilotlarining ko‘magiga ham bog‘liq”.

Oila imkoniyati cheklangan insonlarning jamiyatda faol integratsiyalashuvi va individdan boshqa shaxslar bilan teng maqomga ko‘tarilishi uchun muhim omillardan biridir. Bugungi kunga kelib jamiyatimizda imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan ijtimoiy yondashuvning o‘rni olib borilayotgan turli targ‘ibot-tashviqot tadbirlari natijasida asta – sekinlik bilan bo‘lsa-da, mustahkamlanib bormoqda. Lekin ularning oila qurish, farzand ko‘rish va uni voyaga yetkazish bilan bog‘liq huquq va ehtiyojlari to‘g‘risidagi noto‘g‘ri tasavvurlar (“oila qura olmaydi”, “befarzand bo‘ladi”, “farzandini o‘zi tarbiyalay olmaydi" va boshqalar) ham uchrab turishidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. O‘z navbatida mazkur toifadagi bolalar tarbiyalanayotgan oilalarning barchasi ham farzandlarini kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha yetarli bilim va malakalarga ega deyish, biroz mushkul.

ISSN 3030-3907

Imkoniyati cheklangan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli yondashuv modeliga ko‘ra, ta’lim mikrotizimdan keyingi mezotizimni tashkil etuvchi tarkibiy qismlardan biridir. Lekin yuqorida keltirilgan qator omillar ta’limning imkoniyati cheklangan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlab borishda bola shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda asosiy ijtimoiy institutlardan biri sifatidagi o‘rni va ahamiyatini yanada oshiradi.

Zamonaviy manbalarda bolalarni bo‘lg‘usi oilaviy hayotga tayyorlashda ularni quyidagi yo‘nalishlardagi ma’lumotlar bilan ta’minlashning ahamiyati ta’kidlanadi:

- oilaning axloqiy jihatlari
- oilaning huquqiy jihatlari
- oilaning psixologik jihatlari
- oilaning jismoniy-gigienik jihatlari
- oilaning iqtisodiy jihatlari

Imkoniyati cheklangan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda ham ularga yuqoridagi keltirilgan yo‘nalishlardagi ma’lumotlarni berib borish lozim bo‘lib, mamlakatimiz sharoitida ma’lumotlar mazmuni quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- oilaning ma’naviy – axloqiy jihatlari: oilaning jamiyat tayanchi sifatida yuksak ma’naviy – axloqiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etishi va o‘zi ham shunday qadriyatlardan biri ekanligi;

- oilaning huquqiy-tashkiliy jihatlari: oila qurish inson va fuqarolarning asosiy huquq-erkinliklaridan biri sifatida davlat tomonidan muhofaza qilinishi va rag‘batlantirilishi, “Oila kodeksi” ning asosiy tamoyillari, qoidalari va talablari, nikoh to‘g‘risidagi asosiy tushunchalar, alohida ijtimoiy muhofaza muhtoj oilalarning davlat tomonidan har jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi;

- oilaning psixologik jihatlari: oilaning psixologik barqarorligini ta’minlash uchun erkak va ayolning o‘zaro psixologik xususiyatlarini bilishi, turli vaziyatlarda bir-birlarini tushunishlari, oilaviy muloqot va munosabatlarda hurmat ruhini saqlash, muammoli vaziyatlarning psixologik yechimlarini topishning oson va qulay usullari va boshq.;

- oilaning jismoniy – gigienik jihatlari: erkak va ayolning o‘ziga xos fiziologik xususiyatlari, jinsiy munosabatlar to‘g‘risidagi fiziologik, psixologik va tibbiy aspektdagi ma’lumotlar bilan birgalikda, jinsiy hayotning jamiyatdagi umume’tirof etilgan ahloq normalariga mos kelishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, oila gigienasi, homidorlik va farzand tarbiyasi (ma’lumki, imkoniyati cheklangan bolalarning asosiy qismi kelgusi hayoti va faoliyatida zarur bo‘lgan bilim va ma’lumotlarni ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida oladilar, shu jihatdan homiladorlik va

ISSN 3030-3907

farzand tarbiyasi bo‘yicha tayanch ma’lumotlar ham ushbu muassasalarda kengroq qamrovda berilgani maqsadga muvofiq).

- oilaning iqtisodiy jihatlari: mehnatga ijobiy munosabatni tarbiyalash, tadbirkorlik va tejamkorlik xislatlarini rivojlantirish, oilaning iqtisodiy asoslarini shakllantirish va mustahkamlash bo‘yicha ilk tushunchalar va ko‘nikmalar va sh.k.

Ma’lumki, imkoniyati cheklangan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning umumiy va xususiy prinsiplari va metodlari mavjud. Umumiy prinsiplar va metodlar imkoniyati cheklangan bolalar toifalarining psixo-fizilogik rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, ya’ni aniqlashadi (masalan, tayanch-harakatlanish apparatida nuqsoni bor bolalar bilan nutqida nuqsoni bor bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda qo‘llaniladigan metodlar o‘zaro farqlanadi). Bugungi kunda O‘zbekistonda ixtisoslashuviga ko‘ra 8 turdagi ixtisoslashgan ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatar ekan, ularning har biri imkoniyati cheklangan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha maxsus dasturlariga ega bo‘lishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Dasturlarni tuzish va amalga oshirishdan pirovard maqsad *imkoniyati* cheklangan bolalarni psixo-fiziologik rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘quv-tarbiya jarayoni davomida tizimli va uzluksiz tadbirlarni amalga oshirish orqali oilaviy hayotga bosqichma-bosqich tayyorlab borish natijasida ularning jamiyatga faol intagratsiyalashuviga ko‘maklashishdan iborat bo‘lib, asosan, ta’lim oluvchilardan “oila” haqidagi tushuncha va tasavvurlarni, oilaviy hayot bilan turli yo‘nalishlardagi dastlabki bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirib borish bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirishga yo‘naltiriladi.

Inklyuziv ta’lim dasturi doirasidagi amalga oshiriladigan tadbirlar shakli va mazmunini belgilashda ularni o‘quv jarayonida va darsdan tashqari paytlarda amalga oshirilishida o‘zaro muvofiqligiga alohida ahamiyat qaratish lozim bo‘ladi. Ya’ni, yuqoridagi 5 ta yo‘nalishda beriladigan bilimlar va ko‘nikmalar nazariy jihatdan o‘quv fanlari mazmuniga singdirilishi bilan bir qatorda amaliy jihatdan darsdan tashqari tadbirlarda mustahkamlanib borilishi zarur.

Ma’lumki, psixologik jihatdan, imkoniyati cheklangan bolalar rivojlanishning turli bosqilarida o‘zgalarning ko‘magiga muhtojlik sezadi. Oila muhitida ularga ko‘maklashish har-xil hayotiy vaziyatlarda imkon qadar mustaqil qaror qabul qilishi va ma’lum hatti-harakatlarni ongli amalga oshirishini rag‘batlantirish (motivatsiyalash) orqaligina o‘zining ijobiy natijalarini berishi zamonaviy ilm-fanda va amaliyotda o‘zining tasdig‘ini topmoqda. Ta’lim muassasasining pedagogik salohiyati, metodik va moddiy-texnik bazasi va shu kabi boshqa imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda mazkur toifadagi bolalar tarbiyalanayotgan oilalar (ota-onalari, ularning o‘rnini bosuvchilar, oilaning

ISSN 3030-3907

boshqa a’zolari) bilan olib boriladigan ishlar ham o‘zining alohida ahamiyatiga ega. Buning uchun ta’lim muassasasi dasturi oilalar bilan hamkorlik bo‘yicha ham tashkiliy-pedagogik chora-tadbirlarni o‘z ichiga olishi ijobiy natijalarni beradi.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalar muammolari bilan jamoat va nodavlat tashkilotlari ham shug‘ullanib, qator loyihalar va dasturlarni amalga oshirmoqda. Bizningcha, “Imkoniyati cheklangan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash – ijtimoiy integratsiyalashuvning muhim omili” yo‘nalishidagi ijtimoiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, jumladan, bu boradagi ta’lim dasturlarini samarali amalga oshirishda mavjud imkoniyatlarni to‘g‘ri yo‘naltirishga zamin yaratgan bo‘lar edi.

Alohida e’tibor berilishi lozim bo‘lgan jihatlardan biri imkoniyati cheklangan insonlar oilalarining o‘ziga xos xususiyalari va muammolarini sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, maxsus pedagogika, tibbiyot kabi fanlarning zamonaviy tadqiqot metodlaridan samarali foydalangan holda o‘rganish yuqorida qo‘yilgan masalalarni hal etishning yangi shart-sharoitlari va imkoniyatlarini ochib beradi. Ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalar, tabiiyki, imkoniyati cheklangan bolalarni rivojlanishning dastlabki bosqichlaridan boshlab oila, ta’lim va jamiyat muhitida oilaviy hayotga tayyorlab borishning ilmiy-metodologik va amaliy-metodik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish joizki, bugungi kunda alohida ta’lim ehtiyojiga muhtoj bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda ta’limning, xususan inklyuziv ta’lim muassasalarining imkoniyatlari boshqa ijtimoiy institutlarga qaraganda kengroq, lekin bu jarayonning sifati va samaradorligi boshqa institutlar bilan faol hamkorlikda ishlab chiqilgan alohida dastur asosidagi tizimli tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011 y., 37-son, 380-modda; 2014 y., 23-son, 269-modda). www.lex.uz

2. Косов А.В. Психологические основания социальной мифоонтологии людей с ограниченными возможностями здоровья. Актуальные проблемы психологической реабилитации лиц с ограниченными возможностями здоровья. Материалы международной научно-практической конференции

ISSN 3030-3907

«Актуальные проблемы психологической реабилитации лиц с ограниченными возможностями здоровья» – М.: 2011. Ст. 33.

3. Maktabgacha ta’lim muassasalariga alohida yordamga muhtoj bolalarni tayorlashning tizimli yondashuvi Safarova Sanobar Omontashevna Alfraganus University Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti https://doi.org/10.5281/zenodo.10817387

4. Подготовка детей-инвалидов к семейной и взрослой жизни. Пособие для родителей и специалистов / Под ред. Е.Р. Ярской-Смирновой. Издание 2-е, дополненное. Саратов: ООО Издательство «Научная книга», 2007. – ст. 17.

5. Подготовка ребенка к семейной жизни // Психология дома http://agat.aorta.ru/10/328.htm

6. http://www.disabled-world.com/

ISSN 3030-3907